

AMIRIY MUXAMMASLARIDA QOFIYA

Dilmurod Asqarov

O'zRFA o'zbek tili, adabiyoti va folklori

instituti tayanch-doktaranti

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada Amiriy muxammaslarida qo'llangan qofiya va uning unsurlari haqida babs yuritilgan. Amiriyning so'z tanlash mahorati va qo'llash iqtidori misollar yordamida ochib berilgan. Maqolada muqayyad qofiya unsurlari va uning muxammaslardagi shakllari yuzasidan fikr yuritilgan.*

**Kalit so'z va iboralar:** *muxammas, taxmis, an'ana, adabiy meros, ishq, qofiya, mavzu.*

**Абстрактный:** В данной статье рассматривается рифма и ее элементы, используемые в «Амири мухаммас». Умение Амири выбирать слова и умение ими пользоваться раскрывается с помощью примеров. В статье рассматриваются элементы мукайядской рифмы и ее формы в мухаммасе.

**Ключевые слова и фразы:** *мухаммы, тахмисы, традиция, литературное наследие, любовь, рифма, тема.*

**Abstract:** This article discusses the rhyme and its elements used in Amiri mukhammas. Amiri's ability to choose words and the ability to use them is revealed with the help of examples. The article discusses the elements of muqayyad rhyme and its forms in mukhammas.

**Key words and phrases:** *muhammas, takhmis, tradition, literary heritage, love, rhyme, theme.*

Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy “Funun ul- balog‘a” asarida qofiya haqida shunday yozgan edi: “Bilgilkim, majmui ulamo va fuzalo mazhabinda ahli tab’g‘a qofiya ilmi bilmak muhimdir. Zeroki, tab’ning natijasi she’rdur. Va she’rning asli qofiya. Va qofiyasiz she’r mumkin ermas... Va zurafo baytni xayma (chodir)ga nisbat qilibturlar va qofiyani stung‘a. Ya’ni xayma stun birla barpoydir”. Darhaqiqat, qofiya she’rning asli tayanchidirki, u bo‘lmasa she’r sochilib ketgandek tasavvur uyg‘otadi. Ammo she’rning poetik mazmuni, undagi so‘zlar intonatsiyasi, ritmi, vazni va band tuzilishi bilan uzviy bog‘liq holdagina qofiya o‘z vazifasini o’tay oladi. Amiriy muxammaslari misolida bunga e’tibor qaratamiz.

Ma'lumki, muxammas (arab. — beshlik) muxammasning har bir bandi 5 misradan iborat bo‘lib, a-a-a-a-a, b-b-b-b-a, v-v-v-v-a, ba’zan esa a-a-a-a-a, b-b-b-a-a tarzida qofiyalanadi. Bandlar oxirida shoir taxallusi keltiriladi. 1-bandining 5 misrasida qofiya sifatida qo'llangan so'z shu misra bo'ylab 2 – 3 marta takrorlanadigan namunalari ham uchraydi (mas, Dilkash, Komil Xorazmiy, Feruz, Muazzamxon va boshqa ijodida). Muxammasning 2 turi bor: tab’i xud (mustaqil) va tazmin (taxmis). Birinchisida barcha beshlik misralar bir muallifniki, ikkinchisi (taxmis)da ijodkor bironta ustoz, zamondosh shoir g‘azallari baytlarining har birini beshlik bandlarga aylantiradi. Ikki shoir misralari payvandidan iborat she’r paydo qilinadi. G‘azalning har bir bayti oldidan o‘zining uch misrasini qo’shadi. Muxammas shoir uchun fikr-kechinmalarini chuqurroq ifodalash,

boshqa shoirlar bilan musobaqalashish, kuch sinash, bahslashuv vositasi bo'lgan . Muxammaslarda qofiya asosiy tasvir vositasidir. She'rning tayanchi qofiya bo'lsa, qofiyaning asosi raviy sanaladi.

Balo dashtida g'am tog'in meningdek zor o'landin so'r,  
 Muhabbat ramzini Majnun kibi afgor o'landin so'r,  
 Mazoqi la'li nobin ishq aro xummor o'landin so'r,  
 Shifoyi vasl qadrin hajr ila bemor o'landin so'r,  
 Zuloli zavq-shavqin tashnayi diydor o'landin so'r.

Qofiyadosh so'zlar: bemor, diydorga hamohang zor, afgor, xummor so'zlari tanlangan.

Mazkur bandda raviy "r" tovushi vositasida yuzaga chiqqan. Yoki:

Muhabbat naxli to ko'nglumda mahkam ayladi resha,  
 Tegar g'am tog'ida Farhod yanglig' boshima tesha,  
 Asiri ishqmen, faryodu afg'ondur manga pesha,  
 Zaif-u dard-u g'am pesha, nahif-u mehnat andisha,  
 Zalil-u besar-u somon, qatili xanjari mijgon.

G'azal misralari ba shaklida qofiyalanganligi sababli, band bbbba shaklida ohanglashadi. Resha, tesha, pesha, andisha so'zlari o'zaro qofiyalangan, mazkur so'zlardagi so'ngi tovush "a" qisqa unlisi raviy hisoblanadi.

Amiriy muxammaslarida raviy turli o'rnlarda namoyon bo'ladi. Bunga tanlangan g'azal qofiyalanishi, qofiyadosh so'zlarning xususiyatlari sababdir.

Bandda tesha, Farhod va tog' so'zlari orqali tanosub san'ati hosil bo'lgan. Bu oddiy tog' emas, balki g'am tog'i. Ilohiy ishq yo'lidagi mashaqqatlar maskani.

Qofiyaning yana bir unsuri ridfdi. Ridfning 2 turi bor:

a) ridfi asliy. Qofiyadagi undosh raviy oldidan kelgan "o" cho'ziq unlisi va vazn taqazosiga ko'ra cho'ziq unliga aylangan "u", "o", "i", "e" tovushlari ridfi asliy deb yuritiladi. Amiriy she'riyatida ham ridfi asliyga juda ko'plab misollar keltirish mumkin. Jumladan, "o" ridfi:

Sekratib maydong'a raxshing, ofati jon qilmag'il,  
 Oshiqning ko'nglini zulfungdek parishon qilmag'il,  
 O'ltururga necha yalg'on so'zni bo'xtон qilmag'il,  
 Ey sanavbar bo'yli dilbar, fikri hijron qilmag'il,  
 Shavq o'tida man gadoni asru biryon qilmag'il.

b) ridf-i zoyid. Raviyga old tomondan unlisi qo'shilgan undosh bo'lib, tovush ridf-i zoyid-i mufrad deb yuritiladi. Amiriy muxammaslarida bunday qofiya kam uchraydi:

Etti men noshodni ishq ichra rasvolig'da fard,  
 Ichki sirrim fosh etib bu ashik ol'u rangi zard,  
 Telba ko'nglumg'a, ne tong, gar tegsa dard ustiga dard,  
 O'yla hijron toshlarin yog'durdi charxi tezgard,  
 Kim sipehr avjig'acha xoki tanimdin chiqdi gard.

Qayd ham qofiya unsuri sanaladi. Qayd oldida hamisha qisqa tovush bo'lib, u ham qofiyadosh so'zlarda takrorlanib keladi:

Ul shakarlab mahfil uzra ayladi to noshxand,

Guncha yanglig‘ boshini jayb ichra pinhon etti qand,  
 Bo‘lmadi harkas ramad oshubi birla mustamand,  
 Orazing mushtoqidur bu ko‘zki, bo‘lmish dardmand,  
 Garchi bordur dardliq ko‘zda yoruqliqdin gazand.  
 Qofiyada raviy bilan ta’sis o‘rtasiga suqilib kiruvchi harakatli undosh tovush daxil deb  
 yuritilishi ayon. Amiriy she’riyatida daxilli qofiyaga ham misollar talaygina. Jumladan:  
 Men ki daryoyi muhabbat ichra bo‘lmishman g‘ariq,  
 Vasl ila hijronidin fikru hayolimdur daqiq,  
 Notavon jonimg‘a oning dardu dog‘idur shafiq,  
 Qo‘yma marham tig‘i zahmig‘a ko‘ngulda, ey rafiq,  
 Chiqsa jon ham, chiqmasun ko‘nglumdin ozori aning.  
 Ko‘rinadiki, Amiriy muxammaslarida qofiyaning raviy, ta’sis, ridf, qayd, daxil  
 unsurlarini qo’llab, badiiy tasvirning mukammalligiga erishgan. Qofiya va uning tabiatiga  
 xos ohangdorlik muxammaslarning ta’sirchan va yirqin ifoda topishini ta’minlagan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Is’hoqov Y. So‘z san’ati so‘zligi. – T.: O‘zbekiston, 2014, – B. 127.
2. Mirzayev S. O‘zbek adabiyotida qofiya. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali, 1972, 5-soni. – B.87
3. Ҳамроева Орзигул Жалоловна. Темурийлар давридаги поэтикага доир рисолаларда қофия илмининг қиёсий таҳлили. Фил.фун.док.. дисс. Т. 2022. – Б.266
4. Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға (нашрга тайёрловчи, сўз боши ва изоҳлар муаллифи профессор А. Ҳайитметов) – Тошкент: ”Хазина”, 1996.
5. Шарқ мумтоз поэтикаси (Ҳамидулла Болтабоев талқинида) //Абдураҳмон Жомий. Рисолаи қофия. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 302.
6. Dilmurod Asqarov. Mukhammas form in the lyrics of Uvaysi. International journal of research in commerce, it, engineering and social sciences ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876. 5-9.
7. Askarov D. IN PARTICULAR OF AMIRY'S COMPOSITION OF NAVAI'S GHAZAL. –2022.
8. Dilmurod Asqarov AMIRIYNING NAVOIYGA MUXAMMASI // Academic research in educational sciences. 2023. NoConference Proceedings 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/amiriyning-navoiyga-muxammasi> (дата обращения: 08.04.2023).
9. Dilmurod Askarov. (2022). IN PARTICULAR OF AMIRY'S COMPOSITION OF NAVAI'S GHAZAL. European Scholar Journal, 3(12), 34-36. Retrieved from <https://scholarzest.com/index.php/esj/article/view/3040>

10. Asqarov D. et al. TIL-INSONIYATGA BERILGAN BUYUK NE'MAT //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2023. – Т. 3. – №. 36. – С. 235-240.
11. Asqarov D. AMIRIYNING NAVOIYGA MUXAMMASI //Academic research in educational sciences. – 2023. – Т. 4. – №. Conference Proceedings 1. – С. 101-105.
12. Аскаров Д. Uvaysiy lirikasida muxammas shakli //Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 27-31.